



## INNOVATSION SOHADA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARINING O'RNI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMI

*PhD Maxmudov Sherali Xusanovich*

*Guliston davlat universiteti*

*ORCID: 0009-0003-8754-2987*

*Sherxanov Iftixor Abdulrazzoqovich*

*Guliston davlat universiteti*

*ORCID: 0009-0008-7949-4184*

**Annotatsiya.** Maqolada innovatsion sektorda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) masalalari va cheklangan resurslar sharoitida uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. DXSh sohasida milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar ko'rsatilgan va davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishga asoslangan O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini takomillashtirish mexanizmi taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion salohiyat, davlat-xususiy sheriklik; biznes; hukumat; innovatsiya sohasi; texnologiya, kontsessiya, shartnoma, loyiha.

## РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В ИННОВАЦИОННОМ СЕКТОРЕ И МЕХАНИЗМ ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ

*PhD Махмудов Шерали Хусанович*

*Гулистанский государственный университет*

*Шерханов Ифтихар Абдулразакович*

*Гулистанский государственный университет*

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы государственно-частного партнерства в инновационном секторе (ГЧП) и основные направления его развития в условиях ограниченности ресурсов. Показаны проблемы, препятствующие развитию инноваций национальной экономики в сфере ГЧП, и предложен механизм улучшения развития инноваций экономики Узбекистана, основанный на использовании государственно-частного партнерства.

**Ключевые слова:** модернизация экономики, инновационный потенциал, государственно-частное партнерство; бизнес; государство; инновационный сектор; технология, концессия, контракт, проект.

## THE ROLE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE INNOVATION SECTOR AND THE MECHANISM OF ITS IMPLEMENTATION

*PhD Makmudov Sherali Husanovich*  
*Gulistan State University*  
*Sherkhanov Iftikhar Abdurazakovich*  
*Gulistan State University*

**Annotation.** *The article discusses the issues of public-private partnership in the innovation sector (PPP) and the main directions of its development in conditions of limited resources. The problems hindering the development of innovations of the national economy in the field of PPP are shown, and a mechanism for improving the development of innovations in the economy of Uzbekistan based on the use of public-private partnership is proposed.*

**Keywords:** *economic modernization, innovation potential, public-private partnership; business; government; innovation sector; technology, concession, contract, project.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda innovatsion faoliyat masalasi zamonaviy korxonalar faoliyati doirasidagi masalaga aylanmoqda, chunonchi ekotizim biznesni sifat jihatdan takomillashtirishni ko'zda tutuvchi innovatsion taraqqiyot ta'siri ostida bevosita o'zgarib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, davlat, xususiy va davlat-xususiy qo'llab-quvvatlash asosida innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tiklash mumkin.

Bugungi kunda faoliyatning turli sohalarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va mamlakatda innovatsion faollik darajasini oshirish strategiyasini amalga oshirish borasida jozibadorlik kasb etadi. Ushbu vazifalarni to'laqonli bajarish borasida hukumat va biznes o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash tendentsiyasi kuzatiladi.

O'zaro hamkorlikning mazkur shakli o'zaro manfaatli hisoblanadi, chunki u davlat mablag'lari aylanmasi samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotdagi investitsiyalar va innovatsiyalar ulushini kengaytirishga, ustuvor tarmoqlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolarni hal qilish orqali byudjet xarajatlarini kamaytirishga va daromadlarini oshirishga yordam beradi. Darhaqiqat, davlat-xususiy sheriklik orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish muvaffaqiyatli boshqaruv va umuman jamiyat farovonligining kalitidir.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda va xorijda davlat-xususiy sheriklikning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Bu umumiy maqsadlarga erishish borasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning keng ko'lamli ekanligi bilan izohlanadi. O'zbekistonda birinchi DXSH modellari 2017 yildan keyin amalga oshirila boshlandi. Shu sababli ham DXSH masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan ozchilikni tashkil qiladi.

Mahalliy mutaxassislardan G. Ismoilova davlat-xususiy sheriklikni innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi sifatida e'tirof etadi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik innovatsion ekotizim tashkil etuvchisi hisoblanadi (Ismoilova, 2022).

Belorussiyalik mutaxassis S.A. Kasperovich davlat-xususiy sheriklikni ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishning muhim vositasi va moliyalashtirish manbai sifatida e'tirof qiladi, u ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni ta'lim klasterlari, texnoparklar tashkil qilish orqali yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratadi (Kasperovich, 2020).

Mahalliy tadqiqotchilardan yana biri, Mamayusupova (2021) davlat-xususiy sheriklikni milliy iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash vositasi, muhim strategik loyihalarni moliyalashtirish manbai sifatida baholaydi.

Shuningdek, Kamilova (2020) davlat-xususiy sheriklikni innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning rag'batlantiruvchisi ekanligini ta'kidlaydi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik xususiy investitsiyalar oqimining kengayishiga, davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalarning xususiy sektorga o'tkazilishi orqali budjet xarajatlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish O'zbekistonda endi rivojlanayotganligini va bu borada ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Davlat-xususiy sheriklik O'zbekiston uchun nisbatan yangi soha bo'lganligi bois, bu borada to'plangan xorijiy tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish va xulosalash orqali O'zbekistonda innovatsiyalar ekotizimini takomillashtirish borasida umumiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Bunda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar borasidagi qonunchilik hujjatlari o'rganildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

"O'zbekiston-2023" strategiyasida keyingi etti yil mobaynida DXSh asosida 30 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag'lar jalb qilish va o'zlashtirish ko'zda tutilgan (Qonun, 2019).

Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning turli sohalarida keng ko'lamlı modernizatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun innovatsion salohiyatni ro'yobga chiqarish va rag'batlantirish mexanizmi sifatida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Ilmiy- texnik va innovatsion sohalarida davlat-xususiy sherikchiligi-bu turli sohalarda va ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va biznes o'rtasida belgilangan yoki noma'lum muddatga qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan teng shartnomaviy munosabatlardir. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" Qonuniga ko'ra "davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi"ni anglatadi. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, quyidagilar davlat-xususiy sheriklik borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi (Qonun, 2019):

- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- mavjud ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga, tiklashga, undan foydalanishga, uni saqlashga ko'maklashish;
- ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- davlat xizmatlari sifatini yaxshilash va ulardan erkin foydalanishni kengaytirish;
- xususiy sektorning moliyaviy mablag'larini, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish;
- davlat-xususiy sheriklikning institutsional-huquqiy asoslarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish (O'zR Qonuni, 2019).

Innovatsiya sohasida davlat-xususiy sheriklik mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlar, davlat va xususiy biznesning o'zaro xatti-harakatlari majmui sifatida ta'riflanishi mumkin. Shu sababli, davlat-xususiy sheriklik doirasida davlatning vazifasi "o'yin qoidalari" va barcha ishtirokchilar uchun qulay shart-

sharoitlarni yaratish, tegishli kadrlar tayyorlash, ishlab chiqilgan texnologiyalar bo'yicha zarur ma'lumotlar bazasini, shuningdek ularning tijorat korxonalariga kirish imkoniyatini taqdim etishdan iborat bo'lsa, fanning vazifasi yangi g'oya va ishlanmalar taqdim etish; biznesning roli esa ilmiy g'oyalarni moliyalashtirish va moddiylashtirishda namoyon bo'ladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui hisoblanadi. Innovatsion sohada DXSh loyihalariga investitsiya kiritish shartlari va vositalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- loyihani amalga oshirish uchun etarli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- loyihani amalga oshirish uchun zarur innovatsion infratuzilmaning mavjudligi, shu jumladan DXSh loyihasini tuzuvchi ixtisoslashgan kompaniyani yaratish;
- tan olingan xalqaro usullar va moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda texnik-iqtisodiy asos va biznes-rejaning mavjudligi;
- uzoq muddatli davlat moliyaviy kafolatlarining mavjudligi;
- loyiha va moliyaviy kontseptsiyaga muvofiq loyihaning yakuniy tayyorligi;
- loyihani amalga oshirish uchun barcha huquqiy shartlarning mavjudligi, shu jumladan shartnoma, litsenziya va boshqalar;
- loyihani mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- loyihaning barcha ishtirokchilari o'rtasida loyiha xatarlarini adolatli taqsimlash.

Davlat-xususiy sheriklikning mazmuni va samaradorligi ham davlat siyosatining mohiyatiga bog'liq. Davlat siyosati DXShni amalga oshirishning vektori va intensivligini belgilaydi. Buning ortidan davlat va xususiy korxonalarni boshqarish o'rtasidagi huquqiy, iqtisodiy, texnologik va boshqa turdagi o'zaro munosabatlarning turli shakllarida davlat siyosati amalga oshiriladi. Davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari juda xilma-xildir, shuning uchun DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi orqali manfaatlarni birlashtirishning ko'plab usullari mavjud. Davlat va xususiy kapital o'rtasidagi sheriklik makroiqtisodiy tartibga solish, korporativ boshqaruv, monopoliyaga qarshi qonunchilik, mehnat bozori va moliya-kredit tizimi kabi sohalarda tegishli siyosatni talab qiladigan innovatsiyalar uchun sharoitlarni yaxshilashga yordam berishi kerak.

Moliya sohasida ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilishda xususiy sektorni jalb qilishning muhim usullari quyidagilardan iborat: innovatsiyalar uchun soliq imtiyozlarining muvozanatli choralarini ishlab chiqish va qabul qilish; ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni davlat tomonidan birgalikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish; yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish; puxta o'ylangan investitsiya maqsadlari va aniq belgilangan vazifalar asosida moliyalashtirishning avvaldan mavjud manbalaridan foydalanish yoki yangi manabalar izlab topish; xorijiy aktivlarni sotib olish.

Mamlakat iqtisodiyotining so'nggi bir necha o'n yillar davomida xomashyoga yo'naltirilgan holda rivojlantirilishi texnologik qoloqlik va o'z navbatida to'liq tsikli yuqori texnologik ishlab chiqarishlarning deyarli barbod bo'lishiga olib keldi, buning natijasi o'laroq, iqtisodiyotning innovatsion tashkil etuvchilari tanazzulga yuz tutdi. Ma'lumki, hozirgi bosqichda rivojlangan mamlakatlarda YaIM o'sishining 80% gacha bo'lgan qismi innovatsion sektor hisobiga ta'minlanadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ilmiy-texnik innovatsiyalar sohasidagi DXShsiz zamonaviy milliy innovatsion tizimning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi mumkin emas.

Biznes, davlat tadqiqot tashkilotlari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi interaktiv hamkorlik asosida shakllangan muayyan dastur doirasida sheriklik munosabatlarini rasmiylashtirish eng oqilona yo'ldir. Hamkor loyihani boshqarishning tashkiliy shakllari uning yo'nalishi bilan belgilanadi (markazlashtirilmagan tarmoq boshqaruvi, maxsus yaratilgan konsortsiumlar va tadqiqot markazlari).

## 1-jadval

## Innovatsion sohada DXShni amalga oshirishning xorij tajribasi

| Mam-lakat  | Qo'llab-quvvatlash shakli                    | Moliyaviy mablag'larni taqsimlash  | Faoliyat ko'lami   | Asosiy faoliyat yo'nalishlari   |
|------------|--|--|--|---|
| Avstraliya | Kooperativ tadqiqot markazlari (KTM) dasturi | Naqd va nomoliyaviy resurslar shaklida qo'llab-quvvatlash (in-kind)<br>Investitsiyalarning 3/4 qismi-Avstraliya KTM dasturi mablag'lari, universitetlar, davlat tadqiqot tashkilotlari (DTO);<br>1/4 qismi -sanoat kompaniyalari va nodavlat manbalar mablag'lariga to'g'ri keladi   | Hozirda 90 ta KTMlar faoliyat ko'rsatadi, dastlab 15 ta markaz, 2003 yilda 63 ta va 2010 yilda 43 ta markaz takshil etilgan. Markaz o'rtacha 15 tashkilotni birlashtiradi, shundan 40% universitetlar, 32% firmalar, 24% davlat laboratoriyalari. Markazning o'rtacha yillik byudjeti nomoddiy aktivlarning qo'shganda taxminan 4 million yevroni tashkil qiladi.  | Mudofaa, tibbiyot, ta'lim, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi, axborot-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va qazib olish sanoati, qurilish va transport sohalarida tadqiqot va ishlanmalar.             |
| Avstriya   | Kplus va Kind/Knet dasturi                   | Grantlar shaklida qo'llab-quvvatlash Kplus dasturi uchun (moliyalashtirish muddati 4 yil va undan keyin yana uzaytirish): 35% – dastur mablag'lari, 20% – mahalliy hukumatlar mablag'lari, 5% – boshqa hukumat manbalari (universitetlar, davlat tadqiqot tashkilotlari va boshqalar) mablag'lari.<br>KindG'Knet dasturi uchun: 33% – Iqtisodiyot va mehnat vazirligi, 51% – sanoat kompaniyalari mablag'lari. | Hozirda 18 ta Kplus markazi va 17 Kind/Knet markaz va tarmoqlari mavjud. Kplus markazlarining sheriklari 260 ta kompaniya, 115 ta universitet va 20 ta universitetdan tashqari ilmiy tashkilotlardir.<br>KindG'Knet markazlarining sheriklari 74 ta kompaniya, 22 ta universitet va 7 ta universitetdan tashqari tashkilotlardir.<br>Kplus markazining yillik byudjeti 2,0-4,5 million yevro, Kind/Knet markazi byudjeti esa 0,75–5,5 million yevroni tashkil qiladi | Matematik va imitatsion modellash; nanotexnologiya, materialshunoslik, sirtni tozalash texnologiyalari, kimyo va biotexnologiya; axborot texnologiyalari, mexatronika, o'lchash texnologiyasi, avtomatik boshqaruv. |

|            |   |  |  |   |
|------------|---|--|--|---|
| Gollandiya | Bosh texnologik institutlar                                       | Qo'llab-quvvatlash: 50 % - Bosh texnologik institutlar mablag'lari 50% - bu bilim institutlari (ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar) va biznesning hissasi. Xorijiy hamkorlar va kichik biznes ishtirok etishi mumkin.   | To'rtta davlat texnologik institutlari (DTI), ulardan 2 tasi virtual tashkilotlar (outsorsing); qolgan 2 tasi aralash turdagi institutlardir. Har bir institutda 8 ta davlat ilmiy-tadqiqot tashkiloti va 20 ta kompaniya mavjud. Bitta DTIga yiliga o'rtacha 7,25 million yevro to'g'ri keladi. | Yyetakchi sanoat tarmoqlari uchun telekommunikatsiya sohasida istiqbolli tadqiqotlar va ishlanmalar; - oziq-ovqat va biologiya fanlari va biotibbiyot sohasidagi tadqiqotlar o'rtasida bog'liqlik o'rnatish; - turli metallar borasida fanlararo tadqiqotlar; - polimerlar sohasida bilimlar bazasini yaratish. |
| AQSh       | Ilg'or texnologiyalar dasturi (Advanced Technology Program – ATP) | Grantlar shaklida qo'llab-quvvatlash, qo'shma tadqiqotlar to'g'risidagi shartnomalar (CRADA), shartnoma tuzish. Ishni tashkil etishning ikkita sxemasi mavjud: - I sxema (alohida kompaniya), - IIsxema (qo'shma korxon) - loyiha qiymatining kamida 60 foizini to'laydigan kompaniyalar, 40% tijorat sheriklari | 2003 yilda markazlar soni 700 tashkilotdan oshdi, ulardan 90% sanoat firmalari, 10% shtatlar hukumatlari, federal laboratoriyalar va federal agentliklardir. Dasturning qiymati 2003 yilda 72,3 mln. dollarni tashkil qilgan.  | Sanoatning texnologik yo'llarini xaritalash; ilg'or va murakkab tizimlar uchun texnologiyalar; XXI asr ishlab chiqarish sanoati texnologiyalari; nanotexnologiya; ilg'or materiallar va kimyo; axborot texnologiyalari, elektronika va fotonika, biotexnologiya va boshqalar.                                   |

IHTT mamlakatlarida hukumatlar tomonidan o'zaro kelishilgan dasturlarni ishlab chiqish odatiy hol hisoblanadi. Ba'zi DXSh dasturlari har bir resursni birgalikda qo'shish va taqsimlashni o'z ichiga oladi. Boshqalarda, birgalikda investitsiyalarni loyihaning bevosita ijrochilari o'rtasida mehnat taqsimoti bilan birga olib borish ko'zda tutiladi. Har bir sherikning o'rni va ishtirok darajasi DXShni amalga oshirishda farq qiladi (1-jadval).

Respublikada bir qator infratuzilma sohaslarini rivojlantirishda davlat va biznes o'rtasidagi konstruktiv hamkorlik mexanizmi sifatida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish allaqachon amalga oshirilgan. Mamlakat iqtisodiyotini industrial- innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda fan va innovatsiyalar sohasida DXShni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, bugungi kunda davlat va xususiy biznes o'rtasidagi bunday o'zaro munosabatlar jamiyatni innovatsion o'zgartirishning asosiy tarkibiy qismi sanaladi.


Mamlakatimizda davlat ilmiy-tadqiqot institutlari va xususiy sektor vakillari o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, hukumat moliyaviy rag'batlantirish, xususiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va etarli huquqiy shart-sharoitlarni yaratish orqali sheriklik aloqalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordamlashuvchi

vositachi sifatida harakat qilishi lozim. Tadqiqotchilar davlat korporatsiyalarining innovatsiyalar sohasida bir qator afzalliklarini ta’kidlaydilar, chunki ular:

a) ular yaratilgan maqsadlarga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, ya’ni ular darhol foyda olish maqsadini ko’zlamaydilar;

b) past foizlarda kredit olish imkoniyatlari; davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning yuqorilishi. Ular nafaqat davlat, balki xususiy investitsiyalarni ham jalb qilishlari mumkin. Shunday qilib, kuchli moliyaviy bazaning mavjudligi davlat korporatsiyalariga nafaqat ichki ishlanmalarni qo’llab-quvvatlash, balki xorijiy texnologiyalarni sotib olish va o’zlashtirish imkonini beradi.

Mamlakatda davom etayotgan iqtisodiy modernizatsiya dasturlari doirasida innovatsion faoliyat ko’rsatkichlari bo’yicha tarmoq va mintaqaviy qutblanish pasaymoqda. Muvaffaqiyatga erishish uchun davlat korporatsiyalari, byudjet ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va davlat idoralarning innovatsion strategiyalarini muvofiqlashtirishni ta’minlash kerak. Bu innovatsion tashabbuslarni muntazam monitoring qilish va baholashni talab qiladi.



**1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi**

Respublikada milliy tadqiqot va ishlanmalar sektorining ko’lami, chuqurligi va iqtisodiy ta’sirini oshirishi mumkin bo’lgan mavjud sxemalar va yangi DXSh tashabbuslarini takomillashtirish borasida zarur shart-sharoitlar mavjud. Telekommunikatsiya sohasidagi innovatsiyalar uchun DXSh salohiyatidan foydalanish uchun yaxshi sharoitlar mavjud: telekommunikatsiya provayderlaridan masofaviy o’qitish, tibbiy yordamni yaxshilash, sifatli ta’lim va ochiq hukumat kabi muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishda foydalanish.

### Xulosa va takliflar.

Davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirishning maxsus rejimi noqulay biznes sohasini innovatsiyalar bilan bog'liq yuqori tijorat xatarlarini birgalikda kamaytirishi va innovatsion faoliyatda o'zaro hamkorlik qilish shartlarini engillashtiradigan muhim vositaga aylanishi lozim. Buning uchun innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni eksport qiluvchilarning innovatsion xarajatlarini (tegishli texnologiyalarni o'zlashtirish, loyihalash, muhandislik va o'qitish xarajatlari) hisobga olgan holda startap korxonalarini soliqqa tortish tizimini va intellektual mulk huquqlarini amalga oshirish shartlarini ko'rib chiqish talab etiladi.

Hozirgi bosqichda asosiy vazifa an'anaviy boshqaruvdan tashkiliy va ma'muriy, axborot-tahliliy, ijtimoiy xizmatlar va jamoatchilik aloqalarini boshqarishning murakkab birligiga o'tish, shuningdek davlat funksiyalarini amalga oshirish texnologiyasini sezilarli darajada o'zgartirish hisoblanadi (1-rasm). Ishlab chiqarishda ilmiy-texnik faoliyat natijalarini ilgari surish borasida muayyan tarmoqni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bioindustriya, nanomeditsina, kompyuter texnologiyalari, yashil energiya, qayta tiklanadigan energiya, yangi polimerlar va kompozit materiallar kabi ma'lum texnologik platformalarda yetakchi ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va muhandislik kompaniyalari o'rtasida sheriklik asosida hamkorlikni rag'batlantirish muhimdir.

### Adabiyotlar / Литература / Reference:

Abduvoxidov A., Kamilova S. *INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 4. – S. 12-21.*

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" Qonuni, <https://lex.uz/acts/4329270>

Гулнора Файзуллаевна Исмоилова, Малика Мухаммаджоновна Парпиева (2022) *Ўзбекистонда инновацияларни давлат томонидан тартибга солинишининг хусусиятлари // Academic research in educational sciences. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-innovatsiyalarni-davlat-tomonidan-tartibga-solinishining-hususiyatlari (дата обращения: 28.02.2024).*

Касперович Сергей Антонович, Шарапа Екатерина Викторовна (2020) *Государственно-частное партнерство в инновационной деятельности учреждений профессионального образования // Труды БГТУ. Серия 5: Экономика и управление. №2 (238). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo-v-innovatsionnoy-deyatelnosti-uchrezhdeniy-professionalnogo-obrazovaniya (дата обращения: 28.02.2024).*

Мамаюсупова Диловархон Бегматовна (2021) *Теоретико-методические основы и объективная необходимость развития государственно-частного партнерства в Узбекистане // Бюллетень науки и практики. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/teoretiko-metodicheskie-osnovy-i-obektivnaya-neobhodimost-razvitiya-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva-v-uzbekistane (дата обращения: 28.02.2024).*

Махмудов Ш. *Инновацияларни тижоратлаштириш моделларини такомиллаштириш // Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 2. – С. 23-32.*

Машкура Камилова, (2020) *Инновационные перспективы ГЧП // Экономическое обозрение №1 (241) // https://review.uz/post/innovacionne-perspektiv-gchp*